



THE ROLE OF HISTORICAL CONSCIOUSNESS AND HISTORICAL MEMORY IN THE FORMATION OF A NATIONAL MENTALITY

Raushana Kurbaniyazova

Associate Professor, PhD

Urgench Branch of the Tashkent Medical Academy

Urgench, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Mentality, national mentality, national identity, social consciousness, national consciousness, historical consciousness, historical memory, national pride

Received: 29.01.25

Accepted: 31.01.25

Published: 02.02.25

Abstract: A person's intelligence, his level of thinking, life philosophy and efforts to develop society determine the mentality of an entire nation, an entire society. At today's historical stages of national development, great opportunities are being created to restore historical memory in the consciousness of our people, to read our traditions and values, to enrich and develop them based on the demands of the times, to realize our identity, to take a worthy place in the world community. From this point of view, the article reveals the role of historical consciousness and historical memory in the formation of the identity of our nation and national mentality.

MILLIY MENTALITETNING SHAKLLANISHIDA TARIXIY ONG VA TARIXIY XOTIRANING ROLI

Raushana Kurbaniyazova

Dotsent, PhD

Toshkent tibbiyat akademiyasi Urganch filiali

O'zbekiston, Urganch

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Mentalitet, milliy mentalitet, milliy o'zlikni anglash, ijtimoiy ong, milliy ong, tarixiy ong, tarixiy xotira, milliy g'urur.

Annotatsiya: Insonning aql-idroki, uning tafakkur darajasi, hayotiy falsafasi, jamiyatni taraqqiy ettirish yo'lidagi sa'y-harakatlari, butun bir xalq, butun bir jamiyat mentalitetini belgilaydi. Milliy taraqqiyotning bugungi tarixiy bosqichlarida xalqimiz ongida tarixiy xotirani tiklash, an'ana va qadriyatlarimizni e'zozlash, ularni zamon talablari asosida boyitish va rivojlantirish, o'zligimizni anglash,

dunyo hamjamiyatida munosib o‘rin egallash uchun ulkan imkoniyatlar yaratilmoqda. Shu nuqtai nazardan, maqolada xalqimizning o‘zligini anglashi, milliy mentalitetining shakllanishida tarixiy ong va tarixiy xotiraning roli olib berilgan.

РОЛЬ ИСТОРИЧЕСКОГО СОЗНАНИЯ И ИСТОРИЧЕСКОЙ ПАМЯТИ В ФОРМИРОВАНИИ НАЦИОНАЛЬНОГО МЕНТАЛИТЕТА

Raushan Kurbaniazova

Доцент, PhD

Ургенский филиал Ташкенской медицинской академии

Ургенч, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Менталитет, национальный менталитет, национальная идентичность, общественное сознание, национальное сознание, историческое сознание, историческая память, национальная гордость.

Аннотация: Интеллект человека, его уровень мышления, жизненная философия и усилия по развитию общества определяют менталитет целой нации, всего общества. На сегодняшних исторических этапах национального развития создаются большие возможности для восстановления исторической памяти в сознании нашего народа, прочтения наших традиций и ценностей, их обогащения и развития исходя из требований времени, осознания нашей идентичности, занять достойное место в мировом сообществе. С этой точки зрения, в статье раскрыта роль исторического сознания и исторической памяти в формировании идентичности нашей нации и национального менталитета.

Kirish. (Introduction)

XX asrning so‘nggi o‘n yilligi o‘zbek xalqi va O‘zbekiston hayotida siyosiy, iqtisodiy, huquqiy, ma’naviy va ruhiy yangilanishlar, turli qarama-qarshiliklar va ziddiyatlar davri sifatida tarix sahifalaridan joy olmoqda. Bu tarixiy jarayon xalqimizning tafakkur tarzini, ongu shuurini, fe’l-atvorini, mentalitetini, insonlar o‘rtasidagi munosabatlarni butunlay o‘zgartirmoqda. Jamiat yangilanmoqda va yangi jamiyatning barkamol insonlari shakllanmoqda.

Milliy taraqqiyotning bugungi tarixiy bosqichlarida xalqimiz o‘tmishiga nazar tashlash ehtiyoji muhim ahamiyat kasb etmoqda. Xalqimiz ongida tarixiy xotirani tiklash, an’ana va qadriyatlarimizni e’zozlash, ularni zamon talablari asosida boyitish va rivojlantirish, o‘zligimizni anglash, dunyo hamjamiyatida munosib o‘rin egallash uchun ulkan imkoniyatlar yaratilmoqda.

Mustaqillik g‘oyasi va istiqlol tufayli bugungi o‘zbek tasodifiy millat emasligini, u insoniyat ibtidosi bilan tengdosh ekanligini, bugungi O‘zbekiston davlati esa jahon xaritalarida endigina paydo bo‘lgan davlat emasligini, u qadimiy davlatchilik an‘analariga ega ekanligini ko‘rsatmoqda.

Mustaqillikka erishgan, totalitar tuzum kishanlaridan xalos bo‘lgan O‘zbekiston xalqi ijodiy mehnati bilan o‘zining ko‘p asrlik tarixiga yangi-yangi sahifalar bitmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili

Milliy o‘zlikni anglash, milliy mentalitet shakllanishida tarixiy ong va tarixiy xotira muhim rol’ o‘ynaydi. Bu xaqdagi ilk tasavvurlar qadimgi yunon tarixchilari Gerodot va Fukidid davrlarida shakllangan. Bu kontseptsiyani birinchi marta frantsuz faylasufi va sotsiologi M.Xal’bvaks 1950 yilda yozgan “Jamoaviy xotira” asarida ishlab chiqqan.”Sub’ektiv xarakterdagi jamoaviy xotiralar xalq mentalitetida ularning jamoaviy o‘tmishini ifodalaydi” [8]. Tarixiy tafakkurning milliy mansublikka oid xususiyatlari S.Xattington, “tarix falsafasi”, “tarixiy ong”, “tarixiy xotira”, “milliy o‘zlikni anglash”, tushunchalarini J.Tulenov, S.Otamurodov, M.Bekmurodov, D.Abdullahjonova, N.Jo‘raev, tafakkur madaniyatining siyosiy, huquqiy, diniy, axloqiy shakllarini B.To‘ychiev, M.Xajieva ilmiy tadqiq etishgan.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology)

Tadqiqotning metodologik asosi sifatida: ob’ektivlik, tarixiylik va mantiqiylik tamoyillari, analiz va sintez, tizimli tahlil, umumlashtirish usullaridan foydalanildi.

Natija va muhokama (Research and Discussions)

Tarix inson orqali vujudga keladi va inson orqali abadiyatga aylanadi. Inson ongi va tafakkuri, qalbi va tuyg‘ulari orqali yuzaga kelgan hodisa sifatida qadriyatga aylanadi. Ana shu jihatdan qaraganda inson aql-idroki, uning tafakkur darajasi, hayotiy falsafasi, jamiyatni taraqqiy ettirish yo‘lidagi sa’y-harakatlari, butun bir xalq, butun bir jamiyat mentalitetini belgilaydi. Ana shu mentalitet – millat yoki xalqning umumiyligi madaniy-ma’naviy darajasi, aql-idroki va tafakkur maydoni nechog‘ligiga qarab taraqqiyotning yoki tanazzulning mazmun-mohiyati ochiladi. Tarix esa ana shu o‘ta va murakkab, o‘ta ziddiyatli, ayni paytda nihoyatda qudratli ruhiyat va faoliyat orqali xotiraga aylanadi.

Mentalitet (lotincha “mens” – aql, idrok) – jamiyat, millat, jamoa yoki alohida shaxsning tarixiy tarkib topgan tafakkur darajasi, ma’naviy salohiyati, ularning hayot qonuniyatlarini tahlil etish kuchi, muayyan ijtimoiy sharoitlarda shakllangan aqliy qobiliyati, ruhiy quvvati [13, 257]. Jamiyat, millat yoki shaxsning mentaliteti ularning o‘ziga xos an’analari, rasm –rusumlari, urf-odatlari, diniy e’tiqod va irimlarini ham qamrab oladi.

Har bir millatning aqli, idroki, fahm-farosati uning yashab turgan shart-sharoitlari, tarixi, qanday xalqlar qurshovida istiqomat qilishi, ijtimoiy faolligi va qator boshqa omillar bilan bog‘liq holatda o‘rganiladi. O‘zbek xalqi asrlar davomida muhim savdo-sotiq, ilm-fan, me’morchilik-hunarmandchilik markazlari, xalqlarni va mamlakatlarni bir-biri bilan bog‘lab turgan “Buyuk ipak yo‘li” chorrahasida yashaganligi sababli, uning mentaliteti, aqli, farosati, zehni charxlanib, o‘tkirlashib borgan. Afsuski, xalsimiz XVI-XX asrlar oralig‘ida uzoq turg‘unlik davrini boshidan

kechirdi. Sovet mustamlakachilar davrida u o‘z tarixini, qadriyatlarini, an'analarini, madaniyatining shakllanish yo‘llarini, urf-odatlarini to‘la-to‘kis o‘rganish imkoniyatidan mahrum bo‘ldi. Chunki tarix, milliy madaniyat va milliy tillarni rivojlantirish aqidalashgan mafkura ta’sirida oldindan belgilangan ma’lum istibdodiy maqsadlariga bo‘ysundirilgan edi.

Mustaqillikka erishish, o‘zbek xalqining haqiqiy boy va rang-barang tarixini, o‘z mentalitetini o‘rganish, tiklash, uni boyitish uchun keng imkoniyat eshiklarini ochdi.

Xalqimiz uzoq o‘tmishining yuksak tsivilizatsiyalashgan davrlar bilan tanazzulga uchragan davrlari, ularning mantiqiy, siyosiy va ijtimoiy asoslari, iqtisodiy zhamini va siyosiy tafakkuri bilan yaxlit holda tadqiq etilganda uning bir butun falsafasi vujudga keladi va bir butun qiyofasi yaratiladi. Shu tarzda tarix fenomeni orqali ajdodlarimiz fenomeni, millat va xalq sifatidagi mentaliteti ko‘zimizga yaqqol tashlanadi. Shunday ekan, biz olamni tarix orqali, insoniyat taraqqiyotining bosqichlari, evolyutsiyasi orqali anglaysiz. Har bir inson, Har bir millat o‘zini olamdan ajralgan holatda tasavvur etolmaydi.

M.Xal’baks fikricha, “Tarix, shubhasiz odamlar xotirasida eng muhim o‘rinni egallagan faktlar to‘plamidir.Tarix odatda an’nalar tugashi bilanoq, ijtimoiy xotira susayishi yoki parchalanishi bilan boshlanadi. Xotira mayjud bo‘lib borar ekan, uni yozma ravishda yozib olishning hojati yo‘q. Shu bois, ma’lum bir davr, bir jamiyat va hatto bir kishining tarixini yozish zarurati, ular o‘tmishga shu qadar uzoqqa borgandagina paydo b o‘ladiki, atrofimizda ular haqida biron bir xotirani saqlab qolgan ko‘plab guvohlarni topish imkoniyati kam bo‘lgandagina yuzaga keladi” [11, 22].

Tarix o‘tgan ajdodlarimiz turmush tarzi, ma’naviy-ruhiy kechinmalari, sodir etgan voqeahodisalari, maqsad va intilishlari haqidagi fandir. Uning buyuk qudrati, tarbiyaviy kuchi, murabbiylilik mohiyati o‘tmishni o‘rganish, tadqiq qilish orqali bugunni baholash, bugunni anglash, bugungi odamlarni tushunish va ularni yo‘naltirish borasidagi fikrlarni, g‘oyalarni o‘zida mujassam etganidadir [7, 327].

Insoniyat tarixi bu har birimizga bog‘liq bo‘lgan o‘zligimizni ko‘rsatadigan, bizning olis shajaramizni, naslu-nasabimizni, insoniy qadru-qimmatimizni belgilaydigan, muqaddas va mo‘tabar voqelikdir. Ana shu jihatdan qaragandagina, butun hayot shajarasini davom ettirayotgan, o‘ziga xos tarix yaratayotgan odamlarning dunyoqarashlari, mentaliteti, ma’naviy-ruhiy kechinmalari, insonlik sha’ni nimalarga bog‘liqligi, uning ildizlari qaerlarga yetib borishi va qanday ma’naviy sarchashmalardan ozuqa olayotganligi aniq bo‘ladi. Tarixiy tafakkur bizga zamondoshlarimizning o‘tmishi kimlarga borib taqalishini bilishimizga va hayotda o‘z o‘rnimizni belgilashimizga, o‘zimizning kimligimizni anglab olishimizga yordam beradi [7, 328].

Shu nuqtai nazardan tarixiy tafakkurni milliy o‘zlikni anglash vositasi sifatida tadqiq etish, tarixiy bilim, tarixiy xotira, tarixiy ongning tarixiy haqiqatni ochish jarayonidagi dialektik aloqadorligini aniqlash muhim ahamiyat kasb etadi.

“Milliy o‘zlikni anglash – har bir millatning o‘zini real mavjud sub’ekt, muayyan moddiy va ma’naviy boyliklarni ifodalovchi, yagona til, urf-odatlar, an’analari, qadriyatlar va davlatga mansubligi, manfaatlар hamda ehtiyojlar umumiyligini tushunib yetishidir”[10, 116].

“Milliy ong – millat tarixi, taqdiri va istiqboli bilan bog‘liq bo‘lgan, millat manfaatlari va muammolarini ifodalovchi, millat vakillari faoliyatiga yo‘nalishlar beruvchi g‘oya va fikrlar tizimi”[14, 189].

Milliy o‘z- o‘zini anglash milliy ongdan farq qiladi. Milliy ong har millatning yagona tili, urf-odatlari, an’analari, qadriyatlar va ma’naviyatining pastdan yuqoriga oddiyidan murakkabga tomon rivojlanib borishining muhim mezoni hisoblanadi. O‘z navbatida milliy ongning rivojlanib borishi har bir millatning o‘z- o‘zini anglashi darajasiga ko‘taradi. Milliy o‘z- o‘zini anglash millat manfaatlarini himoya qiluvchi, turli muammolar yuzaga kelgan sharoitda millatni harakatga keltiruvchi va uni birlashtiruvchi moddiy kuchga aylanadi [10, 117].

“Ijtimoiy ong – tabiiy va ijtimoiy voqelikning in’ikosi, jamiyatning muayyan davriga va qismiga tegishli bo‘lgan umumiy his-tuyg‘ular, kayfiyatlar, qarashlar, g‘oyalar, nazariyalar majmuidir”[12, 218]. Ijtimoiy ong turli: siyosiy ong, huquqiy ong, iqtisodiy ong, axloqiy ong, estetik ong, diniy ong, ekologik ong, adabiyot, falsafa shakllarida namoyon bo‘ladi. Falsafiy adabiyotlarda tarixiy ong va tarixiy xotirani ham ijtimoiy ong shakli sifatida ko‘rsatganlar.

Insonning tarixiy tafakkuri tarixiy ong asosida shakllanadi. “Tarixiy ong, ijtimoiy ong shakli bo‘lib, jamiyat tomonidan o‘zining kelib chiqishi va zamondagi o‘rni, o‘tmishi, bugungi kuni va kelajagi o‘rtasidagi aloqadorlikning anglanishi, ijtimoiy voqelikning ob’ektiv idrok etilishidir”[4, 83].

“Ilm-fanda tarixiy ong deganda odatda ijtimoiy guruhalr, sinflar, xalqlar, millatlarda o‘zining kelib chiqishi, o‘z tarixidagi muhim voqealar va o‘tmishdagi buyuk arboblar haqida, o‘z tarixinining boshqa kishilik jamoalari va umuman bashariyat hamjamiyati tarixi bilan nisباتи haqidagi qarashlar, an’analari, udumlar, odatlar, kontseptsiyalar mujassami tushuniladi” [3, 6-12].

Tarixiy ongning taraqqiy etishi ijtimoiy ongning barcha ko‘rinishlari asosida ro‘yobga chiqadi. Ijtimoiy ong siyosiy, mafkuraviy, huquqiy ong, axloq, din, fan, san’at, adabiyot, falsafa shakllarida o‘z ifodasini topadi [6, 33]. O‘tmishga oid barcha bilimlar tizimi, qarashlar, an’ana va urf-odatlar, mafkura va boshqa omillar tarixiy ong tarkibiga kiradi. Ijtimoiy guruhalr, sinflar, xalqlar va elatlar, ya’ni butun bashariyat o‘z kelib chiqishi haqidagi ma'lumotlarni yozma va og‘zaki ijod, tasviriy yoki monumental san’at vositasida saqlaydi va kelajak avlodlarga tarixiy meros sifatida uzatadi. Ana shu merosni idrok etish, o‘rganish va unga baho berish va avlodlararo

uzluksizlikni ta'minlash uchun voris avlodda tarixiy tafakkur rivojlangan b o'lishi juda muhim [9, 26-27].

Har bir inson biron hududda, biron etnik guruh ichida dunyoga keladi va yashaydi. Har qaysi inson men shu millat farzandi ekanman, mening ajdodlarim kimlar bo'lgan, millatimning ibtidosi qayda, uning oyoqqa turishi, tiklanish, shakllanish jarayoni qanday kechgan, degan savollarni o'ziga berishi tabiiy. Tarixni yaxshi bilmasdan turib, yuksak ma'naviyatga erishib bo'lmaydi. "Ma'naviyatini tiklashi, tug'ilib o'sgan yurtida o'zini boshqalardan kam sezmay, boshini baland ko'tarib yurishi uchun insonga, albatta, tarixiy xotira kerak" [2, 8]. Tarix saboqlari insonni xushyorlikka o'rgatadi, irodasini mustahkamlaydi.

"Tarixiy xotira—ajdodlar yaratgan moddiy va ma'naviy boyliklarni kishilar ongi va kundalik amaliy faoliyatida qayta namoyon bo'lishi va eslanishi, qadrlanishi" [13. 389]. Inson o'zining tarixiy xotirasiga ega bo'lmasdan turib, hayotida sodir bo'layotgan ijtimoiy o'zgarishlarning mohiyatini tushunib yetolmaydi. O'z kelajagini tasavvur qila olmaydi.

Tarixiy ong va tarixiy xotira milliy mentalitetning tarkibiy elementini tashkil qiladi. Tarixiy xotira xalq milliy mentaliteti va milliy xarakterining namoyon bo'lishi, o'tmishtan olingan bo'lsa ham, lekin aslida kelajakka, yangi avlodlarga da'vat va murojaat sifatida o'zlikni anglashini ifoda etish usulidir.

"Ma'lumki, el-yurtimiz o'zining qadimiyligi o'tmishi davomida qanchadan-qancha unitilmas voqealarni, turli sinov va qiyinchiliklarni, zafarli davrlar bilan birga, fojiali kunlarni ham boshidan kechirgan. Lekin bir haqiqatni ta'kidlash kerakki, Vatanimiz hududida mayjud bo'lgan har bir davlatchilik tizimi, har qanday ijtimoiy jarayon – u g'alaba yoki mag'lubiyat bo'ladimi, yuksalish yoki tanazzul bo'ladimi – barcha-barchasi xalqimiz bosib o'tgan murakkab tarixiy yo'lning uzviy va ajralmas qismidir. Shuning uchun ham biz tariximizning barcha bosqichlarini yaxlit holda qabul qilib, har tomonlama chuqur o'rganishimiz zarur" [1, 263].

Xalqimizning tarixiy rivojlanish bosqichida davrlar almashgani sari ularning turmush tarzi, fe'l-atvori, xarakteri, qadriyatları, urf-odatlari, mentalitetida ham transformatsiyalashuv jarayonlari yuzaga kelgan.

Uzoq yillar davom etgan siyosiy-ijtimoiy tanazzul va bir yarim asrlik mustamlaka davrlari mobaynida o'zbek xalqi o'zligini asrash, milliy birligini, ma'naviy hamda axloqiy yaxlitligini saqlab qolish borasida matonat ko'rsata bildi. "Bular asosan aholi turli tabaqalariga mansub oddiy insonlar, ziyorilar, hunarmandlar, dehqonlar, umuman olganda jamiyat kuchi vositasida amalga oshirib kelindi:

- O'zbek xalqi tanazzul va mustamlaka davrlaridan o'zining etnik yaxlitligini saqlagan holda chiqa bildi;

- Milliy ma'naviyatning yorqin ifodasi bo'lgan urchodalar, an'analar, rasm-rusumlar, marosim va ma'rakalar tizimi saqlab qolindi;
- O'tmish madaniyatimizning o'lmas obidalari, buyuk mutafakkirlarimiz qalamiga mansub beba ho asarlarning katta qismi, vahshiylarcha talon-tarojlarga qaramay, turli tadbirlarni qo'llash orqali asrab-avaylandi va avlodlarga yetkazildi;
- Uzoq yillar davomida maxsus o'tkazilgan ta'sir va tazyiqlarga qaramay til birligi va tozaligini saqlashga erishildi.

Shu o'rinda ta'kidlash joizki, turli xil millat ma'naviyatiga yot bo'lgan axlo-qiy kodekslar, turmush tarzining o'zgacha uslublarini singdirish borasida uzlusiz tazyiqlarga qaramay o'zbek xalqi o'zining bag'rikengligi, saxovatpeshaligi, mehmondo'stligi, sabr bardoshliigi singari insoniy fazilatlari yo'qotmadi" [5,17].

Lekin shu davr mobaynida xalqimiz yo'qotgan qadriyatlar saqlab qolishga erishilgan qadriyatlardan bir necha hissa ko'proqdir.

"Xalqimizga xos bo'lgan bahamjihatlik, hamkorlik, jangovarlik, ahdga vafodorlik, sadoqat, har ishda birinchi bo'lishga kuchli rag'bat, so'z va amal birligi singari fazilatlarimizga jiddiy putur yetdi. Mamlakatimiz tarixidagi so'nggi to'rt yuz yil mobaynida xalqni milliy birlashishga da'vat etish borasida sa'y-harakatlarning izchil olib borilmaganligi, faqat etnik, sulolaviy va hududiy birlashish bilan qanoat hosil qilish og'ir oqibatlarni yuzaga keltirdi" [5, 18].

Har bir xalq ijodida ezgulik va oljanoblik, mardlik va qahramonlik, vatanparvarlik va insonparvarlik tarannum etilgan. Afsonaga aylangan qahramonlar, eposlarda kuylangan jasur o'g'lonlar yurt ozodligi uchun kurash, haqiqat va adolat tantanasi yo'lida mardlik ko'rsatish timsoliga aylangan. Ezgulik va yovuzlik kurashi muqarrar ravishda ezgulikning g'alabasi, qora kuchlarning tor-mor etilishi bilan yakun topgan. Hech bir xalq yovuzlik va razolatni, o'g'rilik va g'irromlikni, sotqinlik va hasadgo'ylikni yoqlaydigan yoki oqlaydigan ertak yo rivoyat yaratgan emas [9, 43].

Tarixiy xotira xalq og'zaki va yozma ijodi negizida, har bir xalq ma'naviy hayotining ajralmas tarkibiy qismi bo'lgan turli xil rivoyatlar, afsona va ertaklar asosida shakllanadi.

"Yurtimizda tarixiy shaxslar, shaharlar, madaniy yodgorliklarning yubiley va bayramlarini o'tkazish yaxshi an'anaga aylanib qoldi. Bu yerda gap tantanalardagina emas, muhimi, biz ularning o'z davrida kelajak avlodlar uchun qoldirgan salmoqli merosi, ijobiy ishlari, kerak bo'lsa, umumjaxon tsivilizatsiyasiga qo'shgan hissalarini qadrlaymiz. Albatta, har bir millat o'z ajdodlarini eslash, ularning hurmatini joyiga qo'yishga intiladi. Faqat bu kabi xayrli ishlar o'z mohiyati jihatidan xalqlarni yaqinlashtirishga, ularni hamjihat etishga xizmat qiladi" [2, 23].

"O'tmishdagi yutuq va g'alabalardan kuch-quvvat olib, xato va mag'lubiyatlaridan xulosa va saboq chiqarib yashaydigan xalq o'zining taraqqiyot yo'li va kelajagini to'g'ri belgilay oladi.

Biz yoshlarimizni tarixdan saboq olish, xulosa chiqarishga o‘rgatishimiz, ularni tarix ilmi, tarixiy tafakkur bilan qurollantirishimiz zarur.”[1, 264].

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations)

Insonning aql-idroki, uning tafakkur darajasi, hayotiy falsafasi, jamiyatni taraqqiy ettirish yo‘lidagi sa’y-harakatlari, butun bir xalq, butun bir jamiyat mentalitetini belgilaydi.

Mentalitet – millat yoki xalqning umumiy madaniy-ma’naviy darajasi, aql-idroki va tafakkur maydoni nechog‘ligiga qarab taraqqiyotning yoki tanazzulning mazmun-mohiyati ochiladi. Tarix esa ana shu o‘ta va murakkab, o‘ta ziddiyatli, ayni paytda nihoyatda qudratli ruhiyat va faoliyat orqali xotiraga aylanadi.

Milliy mentalitetning shakllanishida uning tarkibiy elementi sifatida tarixiy ong va tarixiy xotira muhim rol’ o‘ynaydi.

Insonning tarixiy tafakkuri tarixiy ong asosida shakllanadi. Tarixiy ong, ijtimoiy ong shakli bo‘lib, jamiyat tomonidan o‘zining kelib chiqishi va zamondagi o‘rni, o‘tmishi, bugungi kuni va kelajagi o‘rtasidagi aloqadorlikning anglanishi, ijtimoiy voqelikning ob’ektiv idrok etilishidir.

Tarixiy xotira xalq milliy mentaliteti va milliy xarakterining namoyon bo‘lishi, o‘tmishdan olingan bo‘lsa ham, lekin aslida kelajakka, yangi avlodlarga da’vat va murojaat sifatida o‘zlikni anglashini ifoda etish usulidir.

Har bir millatning o‘z- o‘zini anglashi natijasida milliy g‘ururi va vatanparvarlik tuyg‘ulari shakllanadi. Bu tuyg‘u o‘z ona zamini, avlod-ajdodlari tomonidan qoldirilgan moddiy, ma’naviy merosdan, o‘z millatining jahon tsivilizatsiyasiga qo‘shtigan hissalaridan, o‘zga millatlar oldidagi qadr-qimmati, obro‘-e’tiboridan faxrlanish hissiyotidir.

Milliy g‘ururi yuksak inson, o‘z eliga, millatiga jonkuyar bo‘lib, millatning kuchi, salohiyati, mentaliteti, bunyodkorlik faoliyati milliy g‘ururga bog‘liq tarzda namoyon bo‘ladi.

Foydalanimilgan adabiyotlar ro‘yxati (References):

1. Мирзиёев Ш.М. (2022) Янги Ўзбекистон – тараққиёт стратегияси. –Тошкент: “Ўзбекистон”. – Б.263; 264.
2. Каримов И.А. (1998) Тарихий хотирасиз келажак йўқ. –Тошкент: “Шарқ”, – Б.8; 23.
3. Абдуллаев Р. (2007) Тарихий онг ва Ўзбекистоннинг замонавий тарих фани. Тарих ва ўзликни англаш: Ўзбекистон ва Германия XX асрда. – Тошкент. –Б. 6-12.
4. Абдуллажонова Д. (2004) Тарихий онг ва тарихий хотира. // Фалсафа ва хукук. – Тошкент. 2-сон, -Б.83.
5. Бекмуродов М. (2011) Ўзбек менталитети. –Тошкент: “Info Capital Croup”, – Б.17;18.
6. Ватан туйғуси. (1996) –Тошкент: Ўзбекистон. 1996. – Б.33

7. Жўраев Н. (2008) Тарих фалсафасининг назарий асослари. –Тошкент: “Маънавият”. – Б.327; 328.
8. Maurise Xalbwachs. (1950) La memoire collective. –Paris: Presses Universitairis de France.
9. Махкамов К. (2020) Тарихий онг ривожланиш тенденциялари. –Тошкент: “Наврўз”. – Б. 26-27; 43.
10. Отамуратов С. (2008) Глобаллашув ва миллат (сиёсий-фалсафий таҳлил). – Тошкент: “Янги аср авлоди”. – Б.116; 117.
11. Хальбвакс М. (2005) Коллективная и историческая память. // Неприкосновенный запас. № 2-3, - C.22.
12. Фалсафа асослари. (2005) Масъул муҳаррир Назаров К. –Тошкент: Ўзбекистон. – Б.218.
13. Фалсафа қомусий луғат.(2004) –Тошкент: Шарқ. – Б.257; 389.
14. Фалсафа энциклопедик луғат. (2010) –Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси”. – Б. 189.
15. KURBANIYAZOVA, R. (2024). MILLIY MENTALITET VA MILLIY XARAKTERNING O ‘ZARO BOG ‘LIQLIGI. *News of the NUUz*, 1(1.9), 113-115.
16. Kurbaniyazova, R. K. (2019). THE INFLUENCE OF GLOBALIZATION PROCESS ON SOCIAL MENTALITY CHANGES. In *Сборник материалов международных научно-практических конференций* (pp. 61-64).
17. Kurbanbaevna, K. R. (2021). O‘Zbek Mentaliteti Shakllanishining Ijtimoiy-Iqtisodiy Va Etnik Jihatlari. *PHILOSOPHY AND LIFE INTERNATIONAL JOURNAL*, (4 (15)).